

SHARTNOMA

24«8»2022 yil.

159-11-168-OB/2022-son

Marg'ilon shaxar Obodonlashtirish boshqarmasi raxbari I. NIYAZOV

(xujalik yurituvchi sub'ekt, FISH)

bundan buyon bir tomondan «Xaridor» deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan Vodiy yoritish va jixozlash MCHJ raxbari S. Yaxyoev
(xo'jalik yurituvchi sub'ekt, FISH)

nizomi asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar xaqida ushbu shartnoma tuzildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» o'ziga tegishli bulgan mol-mulkni sotish, «Xaridor» esa qabul qilib olingan maxsulot yoki tovar (kursatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

t/r №	Tovarning nomi	Ishlab chikaruvchi mamlakat	O'lcho v birligi	Miqd ori	Narxi	Summasi
1	Sement	O'zbekiston respulikasi	kg	1700	1050	1785000
2	Melkiy pesok	O'zbekiston respulikasi	m3	7	90000	630000
3	Armaturo D-18	O'zbekiston respulikasi	kg	80	7900	632000
						3047000

3047000 (Uch million qirq etti ming) so'm
(rakamlar, ezuvlar bilan)

III.XISOB-KITOB KILISH TARTIBI

3.1. «Xaridor» tovar uchun oldindan, etkazib berilayotgan tovar, maxsulot (kursatilgan xizmat) ning 30 foizi miqdorida pul mablagini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. Tovarlar «Sotuvchi»ning transportida etkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan xolda qo'shimcha belgilanadi.

IV. TOVAR ETKAZIB BERISH MUDDATI.

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 3 (uch) kun muddat ichida «Xaridor»ga etkazib berishi shart.

V. TOVAR SIFATI

5.1. Etkazib berilayotgan tovar yoki maxsulotlarning sifati belgilangan standartlarga (muvofiklik sertifikat), ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlari va «Xaridor»ning talablariga mos kelishi shart.

VI. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. «Sotuvchi» ning majburiyatlari:

- SHartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda uz vaqtida «Xaridor»ga tovarni etkazib berish;

- SHartnomaning shartlari «Xaridor» tomonidan buzilganda berilgan maxsulotni qaytarib olib quyish xuquqiga ega;

- Tegishli darajada sifatli maxsulot yuborilmaganligi to'g'risida bildirishnoma olgandan so'ng, sifatli bo'lmagan mol-mulkni 10 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mol-mulk baxosini q'aytarib berish.

- «Sotuvchi» etkazib bergan maxsulotlarini xisob-varaqlarda to'lik va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. SHuningdek, xisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

6.2. «Xaridor»ning majburiyatlari:

- «Xaridor» shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaktida maxsulotni qabul qilish lozim.

- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan sung, ushbu to'grisida tegishli dalolatnoma tuzilib bu xaqida 3 kun ichida «Sotuvchi»ni o'goxlantirish.

- To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan xisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l quyilmaydi.

VII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

7.2. «Sotuvchi» tomonidan «Xaridor»ga tovar va maxsulotlarni belgilangan muddatlarda etkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan xar bir kun uchun etkazib berilmagan maxsulot qiymatining 0,4 % miqdorida

«Xaridor»ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan maxsulot qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

7.3. SHartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi xamda butlashdagi mol-mulk etkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu maxsulot qiymatining 20 % miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

7.4. «Xaridor» tomonidan olingan tovar yoki maxsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4 % miqdorida «Sotuvchi»ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % dan ortiq bo'lmasligi lozim.

7.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida etkazib berilgan tovar yoki maxsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq etkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

VIII. FORS-MAJOR XOLATLARI

81. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va engib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tUSDagi xolatlar: suv toshqini, yong'in, er qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek xarbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlar tegishlidir.

8.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarimaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

8.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogoxlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

IX. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

9.1. SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilishini kafolatlaydi.

9.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish xuquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushuntirish berish yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

9.3. Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish borasida:

davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash;

adolatli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanilishini ta'minlash;

ichki nazoratning samarali tizimini, shuningdek davlat xaridlarini o'tkazish natijalari yuzasidan shikoyat qilish va nizolashishning samarali tartib-taomilini yaratish;

davlat elektron savdolariniingsamaraliishlashinitta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

9.4. Mazkur shartnoma tomonlari qonunchilikka rioya etishi, o'z mansab va xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan va bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zlarini tiyishlari shart.

9.5. Mazkur bobning talabari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

IX. SHARTNOMANI UZGARTIRISH VA BEKOR KILISH TARTIBI

10.1. Ushbu shartnomani bajarish, uzgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflaralug kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo xujalik sudi orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal qilinadi.

10.2. SHartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xanda amaldagi qonun xujatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolida muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

10.3. Ushbu shartnoma 2022 yil «31» dekabr gacha 2 nusxada tuzildi. SHartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidaa so'ng qonuniy kuchga kiradi.

X. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI
«SOTUVCHI» «XARIDOR»

Vodiy yoritish va jixozlash MCHJ
(mol etkazib beruvchining nomi)

Obodonlashtirish boshqarmasi
(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil Marg'ilon sh. Muqimiy 25


Manzil: Mustaqillik 452 a uy


Tel
h/v 20208000405495589001
Bank nomi. Farg'ona sh. Asia Alliance bank
Farg'ona fil.
MFO 01173

sh/h* 302021860304127065100110006
STIR 200138992 OKONX 90290

Moliya vazirligi G'aznachiligi

G'azna h/v 23 402 000 300 100 001 010
Bank nomi Mark. Bank Toshkent sh.
bosh boshqarmasi XKKM
MFO 00014 STIR 201 122 919
Raxbar I. Niyazov



	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ILXOM NIYAZOV FAZILOVICH
	Imzolangan sana	24 abr 2022 10:17
	Hujjat kodi	BT0534380514
	Hulosa kodi	VF7115724275

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN NORMALARIGA
MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA

2022-yil 24-avgust

Marg'ilon shahri

- 1. Loyihaning raqami:** ET0534380514.
- 2. Loyihaning turi:** Shartnoma.
- 3. Loyihaning nomi:** Maxsulot yetkazib berish haqida.

4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:

Loyiha, Marg'ilon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (buyurtmachi) va "Vodiy yoritish va jixozlash" MChJ (ijro etuvchi) tomonidan ishlab chiqilib, 2022-yil 23-avgust kuni dasturga kiritilgan.

5. Loyiha yuzasidan huquqiy hulosa:

Marg'ilon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi_(buyurtmachi) va "Vodiy yoritish va jixozlash" MChJ (ijro etuvchi) qurilish materiallari bilan ta'minlash haqidagi shartnoma loyihasida (summa: 3 047 000 so'm 00 tiyin) ko'rsatilgan munosabatlar "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi hamda shartnomada nazarda tutilgan taraflarning javobgarligi va nizolarni xal etish tartibi yuqorida zikr etilgan qonunchilik talablariga mos keladi. Qayd etilganlarni inobatga olib shartnomani tuzish **maqsadga muvofiq**.

Marg'ilon shahar YuXK markazi
boshlig'i:-



E.Xayitboyev

ТАСДИҚЛАЙМАН

Маргилон шаҳар Ободонлаштириш
бошқармаси бошлиғи



И. Ниязов

“24” август 2022 йил

Маргилон ш.

Маргилон шаҳар Ободонлаштириш бошқармаси томонидан “19” 08.2022 йил кунги лот № 22110012136313 билан Турон МФЙ ҳудудидаги кучаларга қурилиш маҳсулотлари сотиб олиш ишлари бўйича давлат харидлари порталига қўйилган эълон якуни бўйича йиғилиш

БАЁНИ № 11

Қатнашдилар: И. Ниязов -Бошлик
Л. Комилов -Бош муҳандис
З. Каримова -Бош ҳисобчи
Х. Батиралиева -Иқтисодчи
Х.Аминов -Муҳандис техник ходим
М.Хайдарова -Ашёлар ҳисобчиси

Энг яхши таклифни танлаш учун келиб тушган таклифлар:

1. ООО "METAL POLITILEN MONTAJ"
2. «VODIY YORITISH VA LHOZLAI» MCHJ

Йиғилишда, иштирокчилар томонидан келиб тушган таклифлар баҳолангандан сўнг 2 иш кунини мобайнида муҳокамада бўлган. Ушбу муддат ичида иштирокчи корхоналар томонидан ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмади. Юқоридагиларни инобатга олиб комиссия

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Ўтказилган энг яхши таклифни танлашда энг юқори балл тўплаган ғолиб иштирокчи «VODIY YORITISH VA LHOZLAI» MCHJ билан шартнома имзолансин ҳамда энг яхши таклифни танлаш натижалари ҳақидаги маълумотлар (йиғилиш баёни ва шартнома нусхаси) тегишли тартибда Давлат харидларини ўтказиш махсус ахборот порталига жойлаштирилсин.

Ушбу қарорни бажарилишини назорат қилиш комиссия раиси зиммасида қолдирилсин.

Комиссия аъзолари

З. Каримова

Х. Батиралиева

Х. Аминов

М. Хайдарова

Л. Комилов

Йиғилиш котиби: